

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.Y.Bakirov,N.Z.Xolmatova

Ehtimoliy-statistik masalalarni yechishda raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari..... 8

FIZIKA-TEXNIKA

A.B.Yo'lichev, I.R.Asqarov, K.Sh.Djamolov

Research on the impact of mixed feed on the development of broiler chickens..... 14

Sh.Sh.Shuxratov, B.A.Askarova

Integratsion yondashuv asosida talabalarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirish..... 19

M.M.Sobirov

Yer sirtidan qaytgan quyosh nurlanish oqimini atmosferaning nurlanish maydoniga ta'siri 24

Sh.Sh.Shuxratov, G.B.Butayeva

Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish 30

K.Абдулвахидов, Ч.Ли, С.Отажонов, Н.Юнусов

Структура, электрофизические, оптические и магнитные свойства композитов

(1-x)PbFe₁₂O₁₉-xPbTiO₃..... 35**M.M.Sobirov**

Bir kun davomida yer sirtiga tushayotgan quyosh nurlanish oqimi energiyasini hisoblash 42

KIMYO

F.B.Eshqurbanov, E.R.Safarova

Diglisidiltiokarbamid va melamin asosidagi ionitning sorbsiya izotermasi tadqiqoti..... 48

I.R.Asqarov, M.A.Marupova, Y.X.Nazarova

"Asprulans" oziq- ovqat qo'shilmasining biologik faolligini o'rganish 54

C.А.Кодиров, М.Ю.Исмоилов

Водопоглощение и водостойкость гидроизоляционного материала гидроизол-к 59

F.B.Eshqurbanov, A.P.Hamidov

Tabiiy guliof fosforit xomashyosining kimyoviy tarkibini aniqlash usullari 64

A.Sh.Shukurov, M.Y.Ismoilov

Surkov moyi kompozitsiyasining fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash usullari 69

M.B.Xolboyeva, Z.A.Smanova, D.A.Gafurova, M.G.Yulchiyeva, M.R.O'ralova

Immobilangan nitrozo-r-tuzi yordamida Fe (III) ionini aniqlashning samarali va seliktiv usulini ishlab chiqish 74

M.G.Yulchiyeva, X.X.Turayev, Sh.A.Kasimov, M.B.Xolboyeva, M.J.Abduvaliyeva, N.B.Choriyeva

Karbamid, formaldegid va difenilkarbazon asosida sintez qilingan sorbenta

Cu (II) Zn (II) va Ni (II) ionlarining sorbsiyasi va tadqiqoti 80

Z.А.Акназарова, М.А.Ахмадалиев

Сравнительные характеристики химического состава водоемов чорток и киркидон..... 86

S.A.Mamatkulova, N.Sh.G'ulomova, I.R.Askarov

"Asyetis" biologik faol moddasining o'tkir zaharlilik darajasini aniqlash..... 90

I.I.Abdujalilov, D.A.Eshtursunov, S.G.Egambergenova, A.Inxonova, D.J.Bekchanov

Polimer yuzasida metal oksidi nanozarrachalarini zol-gel usuli yordamida sintez qilish va ularning xossalari 93

S.Sh.Do'saliyeva, V.U.Xo'jayev

Allium karatavense o'simligi takibidagi alkaloidlarning sifat taxlili..... 101

D.Abduvohidov, M.Niyozaliev, Z.Toshpo'latova, Kh.Toshov, Sh.Sh.Turgunboev, J.Razzokov

Membrane modification in the formation of channels, channel size, external conditions, and the role of mechanical factors 104

X.N.Saminov, O.M.Nazarov

Anor mevasining mineral va flavonoid tarkibini o'rganish 110



УО'К: 37;5;51(077)

**EHTIMOLIY-STATISTIK MASALALARINI YECHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
QO'LLASH IMKONIYATLARI**

**ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ РЕШЕНИИ
ВЕРОЯТНО-СТАТИСТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ**

**POSSIBILITIES OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN SOLVING PROBABILITY-
STATISTICAL PROBLEMS**

Bakirov To'lqinjon Yunusaliyevich¹ 

¹Farg'ona davlat universiteti, p,f,b,f.d. (PhD), dotsenti

Xolmatova Nodira Zokirjon qizi²

²Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada kompyuter texnologiyasidan foydalanib ehtimollar nazariyasini va matematik statistika elementlarini o'qitish imkoniyatlari keltirilgan. Shuningdek, unda EXCEL dasturining ayrim statistik funksiyalaridan foydalanib gipergeometrik taqsimat va kombinatorikaga oid masalalarni yechish usullari keltirilgan. Maqolada keltirilgan ishlamalar Farg'ona davlat universiteti amaliy matematika yo'nalishi 2-kurs talabalari dars jarayniga tadbiq etildi va ulardan foydalanish samaradorligi aniqlandi.

Аннотация

В статье приводятся возможности использования компьютерных технологий при преподавании элементов теории вероятностей и математической статистики. Рассмотрены также способы решения задач по гипергеометрическому распределению и комбинаторике с использованием некоторых статистических функций программы EXCEL. Разработанные материалы были апробированы в учебном процессе студентов 2 курса направления «Прикладная математика» Ферганского государственного университета и определена эффективность их использования.

Abstract

The article provides opportunities for using computer technologies in teaching elements of probability theory and mathematical statistics. Methods for solving problems on hypergeometric distribution and combinatorics are also considered. The developed materials were tested in the educational process of 2nd year students of the "Applied Mathematics" department of Fergana State University and the effectiveness of their use was determined.

Kalit so'zlar: gipergeometrik taqsimat, o'rinalashirish, gruppash, statistik funksiyalar, hisoblash algoritmi.

Ключевые слова: гипергеометрическое распределение, размещение, группировка, статистические функции, вычислительный алгоритм

Key words: hypergeometric distribution, placement, grouping, statistical functions, computational algorithm

KIRISH

Ehtimoliy-statistik masalalarni yechishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari quyidagi larni o'z ichiga oladi: ma'lumotlar tahlili va matematik modellashirish, simulyatsiyalar, interaktiv vositalar va vizualizatsiya, avtomatik hisoblash va algoritmlar. Ayniqsa statistik paketlar (masalan, Python, SPSS va MATLAB, EXCEL va hokazo) ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ehtimoliy-statistik modellarni yaratishni osonlashtiradi. Raqamli vositalar yordamida murakkab statistik modellarni tuzish va sinab ko'rish osonligi ma'lum. Masalan, Monte-Karlo usuli kabi ehtimoliy simulyatsiyalar matematik modellar yordamida turli enariylarda sinovdan o'tkazilishi mumkin, bu esa natijalarni aniqroq va ishonchli bo'lishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar tez rivojlanayotgan paytda Excel dasturi foydalanuvchilarga ehtimoliy-statistik masalalarni yechishda samarali va qulay dasturiy vosita sifatida ahamiyatini saqlab qolmoqda. Unda asosiy statistik funksiyalar va vositalar to'plami mavjudligi ehtimoliy taqsimatlar va statistik tahlillarni grafik ko'rinishda taqdim etilishi va murakkab algoritmlar yaratilishida muhim rol o'yнaydi. Bu esa

FIZIKA-TEXNIKA

foydanuvchilarga hisoblashlarni tez va aniq bajarish imkonini beradi. Shu bilan birga Excel dasturi ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish, foydalanish qulayligi, vizualizatsiya imkoniyatlari, dasturning keng tarqalganligi, makroslar va avtomatlashtirilgan hisoblashlar mavjudligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ehtimollar nazariysi va matematik statistikani o'rganishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish bo'yicha Lin Hang [1], D.S.Moore [2], Tijms Henk [3], G.V.Gorelova [4], A.S.Rasulov [5] M.A.Suvorova [6], S.A.Samsonova [7] va boshqalar ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan. Ehtimollar nazariyasining vizualizatsiyasida Excel, MATLAB va PowerPoint dasturlaridan foydalanish usullari Lin Hang tomonidan o'rganilgan. D.S.Moore tadqiqotlari Excel dasturidan foydalanib ehtimollar nazariysi va statistikani interaktiv shaklda o'qitish, simulatsiyalar va eksperimentlar orqali ehtimoliy taqsimotlarni amaliy tarzda o'rganish imkonini beradi. S.A.Samsonova ishlab chiqqan metodikada ehtimollar nazariysi va matematik statistikani o'qitishda standart matematik paketlardan (MathCAD, Mathematlca) foydalanish taklif etilgan. A.S.Rasulov oliy o'quv yurtlari uchun tavsiya etgan o'quv qo'llanmasida ehtimollar nazariysi va matematik statistikaning amaliy mashg'ulotlarida kompyuterden foydalanish maqsadida Excel dasturining ayrim standart funksiya lari imkoniyatlarini keltiradi. Oliy o'quv yurtlari uchun ehtimollar nazariyasini o'qitishning o'yin texnologiyasiga asoslangan metodik tizimi M.A.Suvorova tomonidan ishlab chiqilgan. Oliy o'quv yurtlarida matematikani kasbga yo'naltirib o'qitish ehtiyojlari ayniqsa, amaliy matematika, kompyuter ilmlari yo'nalishida ehtimollar nazariyasini o'qitishga munosabatni o'zgartirishni talab qiladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida matematik paketlar xususan, Excel dastur xususiyatlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

EXCEL dasturining "Вставка" menyusidagi " f_x -функция"-funksiya ustasi ehtimoliy-statistik mazmundagi masalalarni yechishda muhim rol o'ynaydi. EXCEL dasturining imkoniyatlaridan kelib chiqib, "ГИПЕРГЕОМЕТ" va "ПЕРЕКСТ" statistik funksiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini keltiramiz.

ГИПЕРГЕОМЕТ (**число_успехов_в_выборке;** **размер_выборки;**
число_успехов_в_совокупности; **размер_совокупности**) - statistik funksiyaning umumiy ko'rinishi bo'lib, bu yerda **число_успехов_в_выборке** – satriga tanlanmadagi bizni qiziqtirayotgan elementlar soni, **размер_выборки** – satriga tanlanmadagi jami elementlar soni, **число_успехов_в_совокупности** - satriga bosh to'plamdagagi bizni qiziqtirayotgan elementlar soni, **размер_совокупности** - satriga bosh to'plamdagagi barcha elementlari soni yozildi. Bu funksiya stoxastika elementlarining gipergeometrik taqsimotga oid masalalarini yechishda qo'llaniladi. Faraz qilaylik, bosh to'plam- $\{a_1, a_2, \dots, a_n\}$ ko'rinishda bo'lib, n_1 ta qora, $n - n_1$ ta oq sharlardan iborat bo'lsin (amaliyotda "oq" va "qora" sharlarni aniq ma'noda "yaxshi" yoki "yomon", "yaroqli" yoki "yaroqsiz" kabi sifatlar bilan talqin qilish mumkin). Bosh to'plamdan hajmi k ga teng bo'lgan qaytarilmaydigan sxema bo'yicha tanlanma olingan. Bu tanlanmada k_1 ta qora sharlar bo'lish ehtimolligi bilan qiziqamiz. Yuqorida keltirilganidek tarkibi bilan farq qiladigan tanlanmalar soni C_n^k ta. O'z navbatida hamma n_1 qora sharlardan k_1 tasini $C_{n_1}^{k_1}$ usul bilan tanlash mumkin va qolgan $k - k_1$ oq sharlarni hamma $n - n_1$ oq sharlardan $C_{n-n_1}^{k-k_1}$ usul bilan tanlash mumkin bo'ladi. Bundan tushunarlikki, qora sharlarni har qanday kombinatsiyasi, oq sharlarni ixtiyorli kombinatsiyasi bilan birgalikda yuzaga keladi. Demak, tarkibi bilan farq qiladigan, hajmi k bo'lib ulardan k_1 tasi qora sharlar bo'ladigan tanlanmalar soni kombinatorikaning ko'paytirish qoidasiga asosan $C_{n_1}^{k_1} \cdot C_{n-n_1}^{k-k_1}$ bo'ladi va bizni qiziqtirayotgan ehtimollik

$$P_{n_1,n}(k_1,k) = \frac{C_{n-n_1}^{k-k_1} \cdot C_{n_1}^{k_1}}{C_n^k} \quad (1)$$

Oxirgi (1) formuladan olingan

$$P_{n_1,n}(0,k), P_{n_1,n}(1,k), \dots, P_{n_1,n}(k,k) \quad (2)$$

sonlar ketma-ketligi ehtimolliklar taqsimotini tashkil qiladi, ya'ni

$$\sum_{k_1=0}^k P_{n_1,n}(k_1,k) = 1.$$

Bu tenglikdan kombinatorikada muhim bo'lgan

$$\sum_{s=0}^k C_m^s C_{n-m}^{k-s} = C_n^k, \quad 0 < m < n,$$

ayniyatni hosil qilamiz. Hosil qilingan (2) ifoda ehtimolliklar taqsimoti "gipergeometrik taqsimot" nomi bilan ma'lum va u ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistikada muhim rol o'ynaydi. Bu taqsimotni nomi (1) tenglikning o'ng tomoni k_1, k, n_1, n argumentlarga nisbatan $(k_1 < \min(k, n_1), \max(k, n_1) < n)$ maxsus "gipergeometrik funksiya" tashkil etishi bilan bog'liq. Demak, EXCEL dasturidan foydalanib gipergeometrik taqsimotga oid masalalarini yechishda "ГИПЕРГЕОМЕТ" statistik funksiyasini quydagicha yozib olishimiz mumkin:

$$P(k_1; k; n_1; n) = \frac{C_{n-n_1}^{k-k_1} \cdot C_{n_1}^{k_1}}{C_n^k} \quad (3)$$

Bu yerda k_1 - число_успехов_в_выборке (tanlanmadagi bizni qiziqtirayotgan elementlar soni), k - размер_выборки (tanlanmadagi jami elementlar soni), n_1 - число_успехов_в_совокупности (bosh to'plamdagи bizni qiziqtirayotgan elementlar soni), n - размер_совокупности (bosh to'plamdagи barcha elementlar soni).

1-misol. (tanlanma haqidagi masala) n ta maxsulotdan iborat to'plamda k ta nostandart maxsulot bor. Tavakkaliga tanlangan m ta maxsulot ichidan t ta maxsulot nostandart bo'lish ehtimolligini MS EXCEL dasturining "ГИПЕРГЕОМЕТ" statistik funksiya si yordamida hisoblang. 1-jadval.

		0	1	
	7	0	0	5
	1	4	0	5
	4	0	0	2

Yechish. n ta maxsulotdan istalgan m ta maxsulot tanlab olinishi elementar natija bo'ladi.

Bunday natijalar soni n sonidan m tadan tuzilgan gruppashlar soniga teng, ya'ni C_n^m . Bizni qiziqtirayotgan A hodisa – ichida t tasi nostandart bo'lgan m ta maxsulotni olish. Demak, A hodisa uchun $n - k$ ta sifatli maxsulotdan ichidan $m - t$ ta sifatli maxsulot bo'lgan gruppalar va k ta nostandart maxsulot ichidan t ta nostandart maxsulot bo'lgan gruppalar qulaylik tug'diradi.

FIZIKA-TEXNIKA

Bundan gruppalar soni: $C_{n-k}^{m-t} \cdot C_k^t$, chunki t ta nostandard maxsulotdan iborat gruppasi C_k^t

ta usul bilan, $m - t$ ta sifatli maxsulotdan iborat gruppasi C_{n-k}^{m-t} ta usul bilan tuzish mumkin, shu bilan birga yaroqli maxsulotlarning istalgan gruppasi nostandard maxsulotning istalgan gruppasi bilan kombinatsiyalashishi mumkin. Bundan

$$P(A) = \frac{C_{n-k}^{m-t} \cdot C_k^t}{C_n^m}$$

izlanayotgan ehtimollik kelib chiqadi. Masala shartida keltirilgan qiymatlarni hisobga olib MS EXCEL dasturining “ГИПЕРГЕОМЕТ” statistik funksiyasi yordamida hisoblash algoritmini keltiramiz: bu yerda t - tanlanmadagi bizni qiziqtirayotgan elementlar soni, m -tanlanmadagi jami elementlar soni, k -bosh to'plamdag'i bizni qiziqtirayotgan elementlar soni, n - bosh to'plamdag'i barcha elementlar soni.

1) B1:D1 katakchalar blokini birlashtiring va “Tanlanma haqida masala” matnni kiritiladi.

2) A3, A4, A5, A6, A7 katakchalarga mos ravishda “ t ”, “ m ”, “ k ”, “ n ”,

$$P(A) = \frac{C_{n-k}^{m-t} \cdot C_k^t}{C_n^m}$$
 o'zgaruvchilarni kiritiladi.

3) C3, C4, C5, S6, D3, D4, D5, D6, E3, E4, E5, E6 kataklarga mos ravishda masala shartida berilgan jadvalidagi qiymatlarni sonli formatda kiritiladi.

4) B7 katakchaga “=ГИПЕРГЕОМЕТ(B3;B4;B5;B6)” formulani yozib yoki B7 katakchani belgilab, buning uchun sichqonchani katakcha ustida olib kelib chap tugmani bir marta bosish kifoya. Menyular satrida joylashgan “Вставка → f_x -функция”да kirib “категория → статистические” bandini tanlang, “Выберите функцию” darchasidan esa “ГИПЕРГЕОМЕТ” statistik funksiya ni belgilab “OK” tugmasi bosiladi, natijada “Аргументы функции” oynasi ochiladi, u yerdagi число_успехов_в_выборке, размер_выборки, число_успехов_в_сочетаемости, размер_сочетаемости darchalariga mos ravishda B3; B4; B5; B6 formulalar kiritiladi va “OK” tugmasi bosiladi.

5) B7 kataknинг o'ng tomonidagi pastki nuqtadan o'ng tomonga E7 katakchagacha tortiladi, natijada izlanayotgan ehtimolliklar hosil bo'ladi.

6) Barcha katakchalardagi ma'lumotlarni eng ma'qul bir xil formatga keltiriladi.

“ t ”, “ m ”, “ k ”, “ n ”, o'zgaruvchilarning berilgan qiymatlari katta sonlar bo'lgani uchun va hisoblash ishlari ancha vaqt talab qilishini hisobga olib MS EXCEL dasturi yordamida ehtimolliklarni topish ancha qulay. O'zgaruvchilarga jadvalidagi qiymatlarni berib quyidagi natijani olamiz.

Tanlanma haqida masala				
t	7	10	11	9
m	17	20	30	35
k	11	14	20	15
n	24	30	40	42
$P(A) = \frac{C_{n-k}^{m-t} \cdot C_k^t}{C_n^m}$	0,2726 92601	0,2667 99933	0,00396 2907	0,0050 09021

ПЕРЕСТ (число_число_выбранных)-statistik funksiya ning umumiyo ko'rinishi bo'lib, bu yerda число –satriga bosh to'plamning jami elementlari soni, число_выбранных –satriga tanlanmadagi (o'rinalashtirishlardagi) jami elementlar soni yoziladi. Bu funksiya stoxastika elementlarining kombinatorikaga oid masalalarini yechishda qo'llaniladi va u

$$P(n, k) = \frac{n!}{(n-k)!}, \quad k \leq n \quad k, n \in N \quad (4)$$

ko'rinishida ifodalanadi.

2-misol. Quyidagi jadval asosida n ta elementdan k tadan o'rinalashtirish va gruppash (kombinatsiyalash) amallarini EXCEL dasturining "ΠΕΡΕКΤ" statistik funksiya si yordamida bajaring.

1-jadval.

a) O'rinalashtirishlar:

	0	5	05	9	00
	1	0			

b) Gruppashlar(kombinatsiyalar):

	5	06	7	8	7
	9	5	0	5	6

Yechish: n ta elementdan k tadan o'rinalashtirishlar $A_n^k = \frac{n!}{(n-k)!}$ formuladan va

gruppashlar (kombinatsiyalash) esa $C_n^k = \frac{n!}{(n-k)! \cdot k!}$ formuladan topilishi ma'lum. Masala

shartida keltirilgan sonlar ko'pligini va kattaligini hisobga olsak, hisoblash ishlari ancha vaqt ni talab qiladi. Shuning uchun hisoblash ishlarini EXCEL dasturining "ΠΕΡΕΚΤ" statistik funksiyasi yordamida bajaramiz. Masalaning hisoblash algoritmi quyidagicha:

1) C1:D1 va B6:D6 katakchalar blokini birlashtiring va "O'rinalashtirishlar" "Gruppashlar(birlashmalar)" matnni kiritiladi.

2) A2, A3, A4, A7, A8, A9 katakchalarga mos ravishda " n ", " k ", " $A_n^k = \frac{n!}{(n-k)!}$ ", " n ", "

" k ", " $C_n^k = \frac{n!}{(n-k)! \cdot k!}$ " o'zgaruvchilar kiritiladi.

3) B2, C2, D2, E2, F2 va B3, C3, D3, E3, F3 kataklarga mos ravishda masala shartida berilgan "O'rinalashtirishlar" jadvalidagi qiymatlarni sonli formatda, B7,C7, D7, E7, F7 va B8, C8, D8, E8, F8 kataklarga masala shartida berilgan "Gruppashlar(kombinatsiyalar)" jadvalidagi qiymatlarni sonli formatda kiritiladi.

4) B4 katakchaga "=ΦAKTP(B2)/ΦAKTP(B2-B3)" formulani kiritiladi yoki B4 katakchaga "=ΠΕΡΕΚΤ(F2;F3)" statistik funksiya joylashtiriladi.

5) B4 kataknинг o'ng tomonidagi pastki nuqtadan o'ng tomonga F4 katakchagacha tortiladi.

6) B9 katakchaga "=ΦAKTP(B7)/(ΦAKTP(B7-B8)*ΦAKTP(B8))" formulani yoki B9 katakchaga "=ΠΕΡΕΚΤ(B7;B8)*(1/ΦAKTP(B8))" statistik funksiya joylashtiriladi.

7) B9 kataknинг o'ng tomonidagi pastki nuqtadan o'ng tomonga F9 katakchagacha tortiladi.

8) Barcha katakchaldagi ma'lumotlarni eng ma'qul bir xil formatga o'zgartiriladi.

n va k o'zgaruvchilarga jadvaldagi har xil qiymatlarni berib quyidagi natijani olamiz.

FIZIKA-TEXNIKA

Microsoft Excel - Лист Microsoft Excel (2)							
	A	B	C	D	E	F	
1							
2	n	60	95	105	99	100	
3	k	9	11	10	9	8	
4	$A_n^k = \frac{n!}{(n-k)!}$	5364506808460800	311684671865027000000	104685286563906000000	628156509555295000	7503063898176000	
5							
6	Группалашлар(комбинациялар)						
7	n	65	106	97	98	67	
8	k	39	15	20	15	16	
9	$C_n^k = \frac{n!}{(n-k)!k!}$	1002596421878660000	648356897091253000	272333912878027000000	182710776306961000	1123787895356410	
10							
11							
12							
13							
14							
15							
16							
17							
18							
19							
20							
21							
22							
23							

XULOSA

Farg'ona davlat universiteti amaliy matematika yo'nalishi 2-kurs talabalari bilimini chuqurlashtirish yo'naltirilgan o'qitish metodikasi samaradorligini aniqlash maqsadida sinov va nazorat guruqlarida tadqiqotlar o'tkazildi. Statistik tahlili K.Pirsonning χ^2 (xi kvadrat) mezon asosida olib borildi. H_0 gipoteza sifatida nazorat va sinov guruvida baholash turlari bo'yicha kutilayotgan natijalarining ehtimolliklari teng, al'ternativ H_1 gipoteza sifatida teng emas deb olindi. Ozodlik darajasi $\kappa = c - 1$ aniqlandi (c -baholash turlarining soni). Tajriba natijalarini baholash turlari (5-a'lo, 4-yaxshi, 3-qoniqarli, 2-qoniqarsiz) bo'lgani uchun $c = 4$ ga teng. $p = 0,05$ deb olingani uchun $\kappa = c - 1 = 4 - 1 = 3$ bo'lib, χ^2 jadvalidan T_{kp} miqdor $T_{kp} = 7,8$. Hisoblashlarga ko'ra $T_{кузатуе} = 10,92 > T_{kp} = 7,8$ bo'lgani uchun H_0 gipoteza (ilmiy faraz) rad etildi. Tajriba-sinov ishlariadi natijalar sinov guruhidagi talabalarining bilim darajalari nazorat guruhidagi talabalarning bilim darajasidan farqli ekanligini ko'rsatdi. Bu esa maqolada tavsiya etilgan ishlanmalardan foydalanish metodik jihatdan ishonchliligin tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Hang, L., Junyang, P., Dunhui, G., & Yao, C. (2023). Research and practice on the teaching reform of probability theory and mathematical statistics based on knowledge visualization. *Transactions on Comparative Education*, 5(7). <https://doi.org/10.23977/trance.2023.050709>.
- Moore, D. S. (1997). New pedagogy and new content: the case of statistics. *International Statistical Review*, 65(2), 123. <https://doi.org/10.2307/140333>.
- Tijms Henk. Understanding Probability Chance Rules in Everyday Life. Vrije University, Amsterdam, Cambridge University Press, 2004. pp.56-68.
- Горелова Г.В., Кацко И.А. Теория вероятностей и математическая статистика в примерах и задачах с применением Excel.-М.: Высшее образование, 2014.-400 с.
- Rasulov A.S., Raimova G.M., Sarimsakov X.K. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. –Toshkent.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. -270 b.
- Суворова М. А. Формирование познавательного интереса студентов в процессе обучения теории вероятностей с использованием компьютерных технологий: Дис. ... канд. пед. наук.- Ярославль: ЯГУ, 2006. -213 с.
- Самсонова С.А. Методическая система использования информационных технологий при обучении стохастике студентов университетов: Дис. ... канд.пед. наук. – Коряжма: РГБ ОД , 2004. -344 с.